

**BOSHLANG'ICH TALIM JARAYONIDA INNOVATSION VA INTEGRATSION TEXNALOGIYALARDAN KENG FOYDALANISH***Jurabayeva Zarnigor Zohidjon qizi**Namangan Davlat pedagogika Instituti**Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası stajyor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'рни va ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanishning muhim jihatlari o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga xizmat qilishi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, AKT, tahlil, taqqoslash, raqobat, tadqiqot, o'yin, texnologiyasi, muvaffaqiyat, maktab, axborot-kommunikatsiya

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta

yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining faoliyati oquv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

**“Baliq skeleti”** texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida “Yo'l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda “ Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi”, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda : “Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash ” umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar vakreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o'ylayman. Men o'z ish

faoliyatim davomida ko'pgina innovatsion g'oyalardan, turli xil didaktik o'yin mashqlardan keng ko'lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham o'quvchi Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Men o'qish darslarida ayniqsa, "Yosh aktyorlar", "Quvnoq quyunchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o'qi" kabi usul va ta'limiy mashqlardan ko'p foydalanaman. Bu albatta, ko'pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

**"Qarama-qarshi so'zlar"** o'yini: Ushbu o'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi. O'yin individual, guruh bilan o'tkazilsa ham bo'ladi. O'yin sharti quyidagicha: O'qituvchi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qaramaqarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: baland-past, issiq-sovuq, qorong'iyorug', qattiq-yumshoq, uzoq-yaqin kabi. Bu o'yin ham bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi. O'yin sharti quyidagicha: o'qituvchi bolaga bir guruhga mansub bo'lgan uchta yoki to'rtta narsa nomini aytadi. Bola ularning umumiy nomini aytishi kerak. Masalan: ot, qo'y, sigir, buzoq so'zlarini aytsa, bola esa: ot, qo'y, sigir, buzoq - uy hayvonlari deb umumiy nomini aytadi. Tarvuz, qovun, handalak-poliz mahsulotlari, qo'lqop, palto, etik, bo'yinbog'qishki kiyimlar. "To'rtinchisi ortiqcha" o'yini Bolalarga bir guruhga mansub bo'lgan uchta narsa va boshqa guruhga mansub bitta narsa nomi aytiladi. Bolalar ulardan to'rtinchisi ortiqchaligini anglashlari va ayta olishlari kerak. Sababi so'ralganda bola fikrini asoslab bera olishi kerak. O'yin jarayonida faqat to'rtinchisi emas, bolalarda hosil bo'lgan ko'nikmalarni hisobga olgan holda birinchisi, ikinchisi, uchinchi ortiqcha tarzida ham tashkil etish mumkin. Chunki faqat to'rtinchisi ortiqcha bo'lsa, bola fikrlamay turib, o'zida oldingi o'rtoqlarining javobidan ko'nikma hosil qilib, to'rtinchisi ortiqcha deb qo'ya qoladi. Lola, binafsha, bulbul, atirgul; Samarqand, samolyot, Xorazm, Namangan.

Bu o'yinda bolalarning tafakkuri rivojlanibgina qolmay, shu bilan birga ularning nutqiy faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Muvaffaqiyatdan olingan xursandchilik, qiziquvchanlik inson shaxsining har tomonlama rivojlanishiga olib keladi. O'yinda qoidalarni va munosabatlarni aniq bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda birinchi marotaba sardorlik hosil bo'ladi. Bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi. Musobaqa o'yinlarini alohida o'yin guruhiga ajratish mumkin. Bu o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish bola uchun juda ahamiyatlidir. Shuning uchun aynan musobaqa o'yinlarida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllangani va rivojlangani uchun bu o'yin texnologiyasini olib kirish boladagi qiziqish va ishtiyoqini o'sishiga yaxshi samara bo'lishi mumkin.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab

ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqeahodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodologiyasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi.

**Ko'rgazmali ta'lim** tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu

materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘shishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo‘ron", kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san‘at darslarida ko‘rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o‘quv darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tish metodologiyasiga ega bo‘ladi. Umumiy ta’limning poydevorini qo‘yadigan boshlang‘ich maktabdagi ko‘p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san‘at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta’minlanishi kerak. Harakatlar strategiyasining 4-yo‘nalishida ham ta’lim tizimi to‘g‘risida fikr yuritilgan. vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta’limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Maktablarda o‘rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko‘rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Maktab umumta’lim fanlarining tarqoq holda o‘rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda o‘rgatilmaligi o‘quvchilar bilimni to‘la bo‘lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to‘sqinlik qilib, o‘quvchilarda qiyinchilik uyg‘otadi. Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday tushuncha ta’lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog‘liqlik masalasini yana bir bor ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta’lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vositalardan biridir. Integratsiyalashtirilgan

darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan.

**Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha:** "Birbiri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o'rta maktablarining katta sinflarida o'z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak.

Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko'rsatib beradilar: o'quv predmetlarining chegaralangan soni - olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin. Juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga bo'linib o'qitishni talab qiladiganga o'xshaydi. Lekin o'qish va matematikani o'qitishning an'anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o'qish fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo'yicha materiallarni oladi. Matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni o'z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko'nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini, qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini

shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va ematsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishi metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

#### REFERENCES

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.
2. Tolipov O, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan 2006
3. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
4. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. T: G'ulom 2013
5. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar T.G'afforova T2011.
6. Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta'siri. G'oziev E. Ma'rifat gazetasi. 2017yil.
7. Pedagogika tarixi. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova T: O'qituvchi, 1996. 5. Ta'limda innovatsion texnologiyalar T: "Ist'edod" 2009 Shodmonov